

## **2024 yilning 9 oyida amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida MA'LUMOT**

### **ИНФОРМАЦИЯ об объемах импорта и принятых мерах по сокращению импорта за 9 месяцев 2024 года**

#### **I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.**

2024 yilning yanvar-sentabr oylarida kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **27,2** mln. dollarni tashkil etdi.

"Navoiy KMK" AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Mashina va uskunalar (gidravlik ekskovator) - **1,2** mln. dollar (4,5%);
2. Butlovchilar va ehtiyyot qismlar (ichki yonuv dvigatellari va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar, kon va shaxta texnikasiga ehtiyyot qismlar va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar) – **12,4** mln. dollar (45,4%);
3. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar, portlashlarni yuzaga keltiruvchi vositalar va boshqalar) – **5,0** mln. dollar (18,5 %);
4. Xizmatlar – **8,6** mln. dollar (31,6%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'limgan, Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

#### **II. Kombinat bo'linmalarini quvvatlarida mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.**

2024 yilda mahalliylashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida **180** ta (grafik bo'yicha 179 ta) loyiha bo'yicha **699,5** mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan **100,6%**ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2023 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **145,5%**ni tashkil etdi.

Xususan, 3-gidrometallurgiya zavodi uchun yangi turdag'i 4,5x6,0 metrli sharli, 7,0x2,3 metrli maydalash tegrimonlari, masofada boshqariladigan avtomatlashtirish tizimlari asosida ishlovchi pultlar, vibratsion oziqlantiruvchi boshqaruv shkafi, yangi turdag'i kon-shaxta burg'ulash texnikalari uchun ehtiyyot qismlari hamda yirik avtosamosvallari uchun ehtiyyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarilib topshirildi.

### III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2024 yilning yanvar-sentabr oylarida sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **4 995,1** mlrd. soʻmni va 2023 yilning mos davriga nisbatan 124,3% ni tashkil etdi.

Kombinatning 2024-yilga moʼljallangan import boʼyicha olib kiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish hisobiga importni qisqartirishning maqsadli koʼrsatkichlari joriy yilninig yanvar-sentabr oylarida **87,3** mln. dollarni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi koʼzda tutilgan, kelib chiqishi import boʼlgan tovarlar toʼgʼrisidagi maʼlumotlarni elektron kooperasiya portalida toʼliq oʼrganish orqali maʼlumotnomaga shakllatirilgach xaridlar amalga oshirilmoqda.

Tashkil etilayotgan sanoat yarmarkalarida (Jizzax, Buxoro, Namangan, Samarqand, Fergana, Andijon, Sirdaryo viloyatlarida) faol ishtirok etib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan **1 309,3** mlrd. soʻmlik shartnomalar imzolandi.

“Navoiy KMK” AJ importni qisqartirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish boʼyicha ishlarni davom ettirish va xaridlar shaffofligini oshirish boʼyicha doimiy choralar koʼrilmoxda.